

**QURILISH LOYIHALARINI DAVLAT BYUDJETI HISOBIDAN
MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH
YO‘LLARI**

Jumaev Sirojiddin Po‘latjonovich

“O‘zshahar qurilish invest” MCHJ bosh muhandisi

E-MAIL: siroj601@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida qurilish loyihalarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilingan. Tadqiqotda O‘zbekiston va xalqaro mamlakatlar tajribasi asosida qurilish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari o‘rganilgan. Natijalar so‘nggi yillarda mamlakatda davlat byudjeti ulushi kamayib, xususiy sektor va xalqaro moliya institutlari ishtirokining oshayotganini ko‘rsatdi. Xalqaro tajriba asosida DXSh, obligatsiyalar, maxsus jamg‘armalar orqali moliyalashtirishni kengaytirish, loyihalarni tanlash va baholashda iqtisodiy asoslangan yondashuvni kuchaytirish zarurligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Davlat byudjeti, qurilish loyihalari, moliyalashtirish, infratuzilma, xalqaro tajriba, O‘zbekiston.

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ
ФИНАНСИРОВАНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРОЕКТОВ ИЗ
ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА**

Джумаев Сироджиддин Пулатжонович

Главный инженер ООО «Узшахар курилиш инвест»

E-MAIL: siroj601@mail.ru

Аннотация: в статье анализируется практика финансирования строительных проектов за счет средств государственного бюджета в Республике Узбекистан. В исследовании рассмотрены механизмы финансирования строительных и инфраструктурных проектов на основе

опыта Узбекистана и зарубежных стран. Результаты показали, что за последние годы доля государственного бюджета в экономике страны сократилась, а участие частного сектора и международных финансовых институтов возросло. На основе международного опыта было выявлено, что необходимо расширять финансирование через ГЧП, облигации и специальные фонды, а также укреплять экономически обоснованный подход к отбору и оценке проектов.

Ключевые слова: *государственный бюджет, строительные проекты, финансирование, инфраструктура, международный опыт, Узбекистан.*

WAYS TO IMPROVE THE PRACTICE OF FINANCING CONSTRUCTION PROJECTS FROM THE STATE BUDGET

Jumaev Sirojiddin Pulatjonovich

Chief Engineer of “Uzshahar qurilish invest” LLC

E-MAIL: siroj601@mail.ru

Abstract: *this article analyzes the practice of financing construction projects from the state budget in the Republic of Uzbekistan. The study examines the mechanisms of financing construction and infrastructure projects based on the experience of Uzbekistan and international countries. The results show that in recent years the share of the state budget in the country has decreased and the participation of the private sector and international financial institutions has increased. Based on international experience, it is necessary to expand financing through PPPs, bonds, special funds, and strengthen an economically sound approach to the selection and evaluation of projects.*

Keywords: *state budget, construction projects, financing, infrastructure, international experience, Uzbekistan.*

Kirish

Davlat infratuzilmasini rivojlantirish, aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda qurilish loyihalarining ahamiyati beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlarida so'nggi yillarda davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilayotgan qurilish loyihalarining natijadorligini oshirish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi qayd etilgan (PQ-3437, 2017). Rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, O'zbekistonda davlat byudjeti resurslari cheklanganligi sababli, mavjud mablag'lardan samarali foydalanish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va xalqaro moliyaviy institutlar imkoniyatlarini jalb qilish dolzarb masalaga aylangan.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma investitsiyalarining 83% davlat investitsiyalari orqali amalga oshiriladi (Global Infrastructure Hub, 2023). Biroq O'zbekiston tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda davlat byudjeti ulushi sezilarli kamaygan bo'lib, 2023-yilda barcha investitsiyalarning atigi 13% davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan (Pivot.uz, 2024). Ushbu holat davlat byudjeti yukini kamaytirishga olib kelsa-da, mavjud tizimda ayrim tizimli muammolar, moliyalashtirish samaradorligini oshirish zaruriyati saqlanib qolmoqda.

Maqolada qurilish loyihalarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirishning mavjud holati, xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti tahlil qilinib, amaliy takomillashtirish yo'llari taklif etiladi.

Adabiyotlar sharhi

Qurilish loyihalarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish masalasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar va amaliy tadqiqotlar tahlili ushbu yo'nalishning dolzarbligi va murakkabligini ko'rsatadi. Xalqaro amaliyot shuni tasdiqlaydiki, "davlat investitsiyalari infratuzilma rivojida yetakchi rol o'ynaydi, biroq byudjet cheklovlari sharoitida samaradorlik va oqilona boshqaruv muhim ahamiyat kasb etadi" (Global Infrastructure Hub, 2023). Rivojlanayotgan davlatlarda davlat mablag'lari yetishmovchiligi fonida xususiy sektorni jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda (Jahon banki, 2023).

Hazratqulov Sh.B. o'zining ilmiy ishida "kapital qurilish loyihalarini moliyalashtirishda davlat, xususiy va xalqaro manbalarni birlashtirish orqali byudjet resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish mumkinligini" ta'kidlaydi (Hazratqulov, 2024). Muallif, shuningdek, O'zbekistonda hozirgi paytda "loyihalarni tanlash, moliyalashtirish va ijrosini nazorat qilish mexanizmlarida tizimlilik va shaffoflik yetishmayotganini" qayd etadi (Hazratqulov, 2024).

Rossiya va Qozog'iston tajribasi tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham "DXSh loyihalari soni keskin oshgani, bu orqali davlat byudjeti yukini kamaytirish va loyihalarni tezlashtirishga erishilganligi" alohida e'tirof etiladi (Islomov, 2022). Shu bilan birga, Rossiyada federal maqsadli dasturlar va davlat banklari orqali qurilish loyihalarini moliyalashtirish davom etmoqda, ammo ayrim holatlarda "moliyaviy intizom va samarasizlik xavfi yuzaga kelmoqda" (Kulikova, 2021).

O'zbekiston misolida esa, Prezident qarorlarida qayd etilganidek, "2020-yilgacha byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan ayrim loyihalar iqtisodiy

ji hatdan samarasiz bo‘lib chiqqan va davlat resurslarining nooqilona sarflanishiga sabab bo‘lgan” (PQ-3437, 2017). Bu esa, davlat investitsiya dasturlarini shakllantirishda puxta rejalashtirish, iqtisodiy tahlil va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro tajribada esa, masalan, Buyuk Britaniyada joriy etilgan PFI modeli haqida bahsli fikrlar mavjud. Ba’zi tadqiqotlarda qayd etilishicha, "PFI dasturlari dastlab moliyalashtirishdagi byudjet yukini kamaytirgan bo‘lsa-da, uzoq muddatda xarajatlar oshishiga olib kelgan" (Smith, 2019). Shu sababli ko‘pgina rivojlangan davlatlar byudjetdan tashqari fondlar, obligatsiyalar va DXSh loyihalarini samarali muvozanatda saqlashga harakat qilmoqda.

Umuman, tahlil etilgan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, qurilish loyihalarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirishda O‘zbekiston uchun eng maqbul yo‘nalishlar – “loyihalarni tanlashda iqtisodiy-asoslangan yondashuv”, “moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish” va “moliyaviy intizomni kuchaytirish”dan iborat (Hazratqulov, 2024; GI Hub, 2023).

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi va xalqaro mamlakatlarda qurilish loyihalarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish amaliyoti o‘rganildi. Tadqiqotda statistik ma’lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va ilmiy maqolalardan foydalanildi. Mavjud holatni baholashda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat statistika agentligi va Davlat byudjeti ijrosi bo‘yicha hisobotlar asosida tahlil qilindi. Xususan, 2022-2024 yillar kesimida davlat byudjeti hisobidan

moliyalashtirilgan qurilish loyihalari hajmi, ularning umumiy investitsiyalar tarkibidagi ulushi va sohalar bo'yicha taqsimoti tahlil qilindi.

Xalqaro tajriba tahlili uchun Jahon banki, Global Infrastructure Hub, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa tashkilotlarning infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha statistik ma'lumotlari, tahliliy hisobotlari o'rganildi. Shuningdek, Rossiya, Qozog'iston, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni va AQSh tajribasi o'rganilib, O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirma tahlil usuli qo'llandi. Solishtirma tahlilda davlat moliyalashtirish modeli, DXSh ulushi, obligatsiyalar chiqarish amaliyoti va maxsus jamg'armalar orqali moliyalashtirish mexanizmlari o'zaro qiyoslandi.

Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil metodlari qo'llanildi. Sifatli tahlilda ilmiy maqolalar, ekspert baholari va normativ hujjatlar tahlili asosida mavjud muammolar aniqlanib, takomillashtirish yo'llari ishlab chiqildi. Miqdoriy tahlilda esa investitsiyalar hajmi, byudjet ulushi va boshqa asosiy ko'rsatkichlarning dinamikasi ko'rsatildi. Tadqiqotda shuningdek, SWOT tahlil yondashuvi asosida O'zbekiston amaliyotidagi kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va xavf omillari aniqlanib, ular asosida tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar

O'zbekiston Respublikasi misolida qurilish loyihalarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish amaliyoti tahlili so'nggi yillarda ushbu sohada jiddiy o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatmoqda. 2022–2024 yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilgan qurilish va infratuzilma loyihalari hajmi pasayish tendensiyasida. Iqtisodiyot va moliya vazirligining hisobotiga asosan, 2022-yilda markazlashgan mablag'lar hisobidan

SJIF:5.219

moliyalashtirilgan kapital qo'yilmalar hajmi 27,8 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 40,9 trillion so'mga oshdi. Biroq, 2024-yilning birinchi choragida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar atigi 7,6 trillion so'mni tashkil etdi, bu jami investitsiyalar hajmining 7,1 foizini tashkil etdi. Solishtirish uchun, 2023-yilning birinchi choragida bu ko'rsatkich 9,3 trillion so'm yoki 9,5 foizni tashkil etgan edi (Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2024).

Quyidagi jadvalda O'zbekistonda 2022–2024 yillarda davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi va ulushi keltirilgan:

Yil	Jami asosiy kapital investitsiyalari (trln so'm)	Davlat byudjeti hisobidan (trln so'm)	Ulushi (%)
2022	283,5	27,8	9,8
2023	315,0	40,9	13,0
2024 (1-chorak)	107,1	7,6	7,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2024; Invexi.org, 2024.

Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning ulushi kamayib, xususi sektor va xalqaro moliya institutlari hisobidan moliyalashtirish hajmi oshmoqda. Xususan, 2023-yilda asosiy kapitalga

investitsiyalarning 87 foizi xususiy va xorijiy manbalar hisobidan amalga oshirilgan bo'lsa, 2024-yilning birinchi choragida bu ko'rsatkich 92,9 foizga yetdi. Bu holat O'zbekistonda moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiya qilinayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyot tahlilida esa rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma investitsiyalarining 83 foizgacha bo'lgan qismi davlat tomonidan moliyalashtirilayotganligi qayd etilgan (GI Hub, 2023). Masalan, Qozog'iston tajribasida 2020-yilgacha 700 dan ortiq DXSh bitimlari tuzilgan bo'lib, ular yillik investitsiyalar hajmining qariyb 20 foizini tashkil qilgan (Islomov, 2022). Rossiyada esa federal maqsadli dasturlar orqali yirik infratuzilma loyihalari moliyalashtirilmoqda, biroq so'nggi yillarda xususiy sektor ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar ulushi oshib bormoqda.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniya tajribasida PFI modeli orqali davlat infratuzilmasi qurilishi xususiy sektor ishtirokida amalga oshirilgan bo'lsa-da, uzoq muddatda xarajatlar oshishi va moliyaviy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatganligi qayd etilgan (Smith, 2019). Saudiya Arabistonida esa neft daromadlari hisobidan tashkil etilgan maxsus jamg'armalar orqali mega-loyihalar moliyalashtirilmoqda, bu esa byudjet resurslaridan to'g'ridan-to'g'ri yukni kamaytirgan.

O'zbekiston misolida esa DXSh loyihalarining ulushi pastligicha qolmoqda. Hozirda energetika, transport va kommunal xizmatlar sohalarida ayrim loyihalar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, umumiy investitsiyalar tarkibida DXSh loyihalarining ulushi 5–7 foiz atrofida qolmoqda. Bu esa moliyalashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish amaliyotini samarali takomillashtirish uchun quyidagi asosiy muammolar dolzarbdir:

- loyihalarni tanlashda iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka yetarli baho berilmayapti;
- DXSh loyihalarining ulushi yetarlicha yuqori emas;
- byudjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazorat mexanizmlari kuchsiz.

Ushbu natijalar kelgusida O'zbekiston uchun byudjet moliyalashtirishini diversifikatsiyalash, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirishning zarurligini tasdiqlaydi.

Munozara

O'zbekiston misolida qurilish loyihalarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish amaliyoti tahlili natijalari ushbu sohada islohotlar va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti hisobidan qurilish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish ulushi yildan yilga kamayib, 2024-yilning birinchi choragida atigi 7,1 foizni tashkil etmoqda. Bu, bir tomondan, xususiy sektor va xalqaro moliyalashtirish manbalarining oshib borayotganligini ko'rsatsa-da, ikkinchi tomondan, davlat investitsiya dasturlarini moliyalashtirishda tizimli yondashuv yetishmasligini aks ettiradi.

Xalqaro amaliyot tahlilida aniqlanganidek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish modeli o'rnini asta-sekin DXSh, maxsus SJIF:5.219

jamg'armalar va obligatsiyalar kabi moliyalashtirish mexanizmlari egallamoqda. Xususan, Qozog'iston tajribasi O'zbekiston uchun o'rganilishi lozim bo'lgan namunaviy amaliyot bo'lib, bu davlatda DXSh loyihalari hajmi umumiy infratuzilma investitsiyalarining 20 foizidan oshib ketgan (Islomov, 2022). Bu esa byudjet yukini kamaytirish bilan birga, xususiy sektorni jalb etish orqali innovatsion va samarali yondashuvlarni tatbiq etish imkonini bergan.

O'zbekistonda esa DXSh loyihalarining ulushi juda past darajada bo'lib, bu, birinchi navbatda, sohadagi huquqiy va institutsional mexanizmlarning rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Jahon tajribasidan ma'lumki, DXSh mexanizmlarining muvaffaqiyatli ishlashi uchun loyiha tanlash, risklarni taqsimlash, moliyaviy kafolatlar va tender jarayonlarining shaffofligi muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, O'zbekistonda DXSh jarayonlarining murakkabligi va investorlar uchun noaniqliklar investitsiyalar oqimining pastligiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekistonda davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilayotgan loyihalar ustidan nazorat tizimi yetarli darajada kuchli emas. Hisob palatasi, ichki audit va jamoatchilik nazorati imkoniyatlari cheklangan bo'lib, "Shaffof qurilish" tizimining amalda to'liq ishlamasligi mablag'larning maqsadli sarflanishi va samarasizlikka olib kelayotgan holatlar kuzatilmoqda. Bu esa loyihalarining ortiqcha xarajatlar, kechikishlar va natijadorlik pastligi bilan amalga oshirilishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari ishtirokini kengaytirish orqali davlat byudjeti yukini kamaytirish imkoniyati to'liq ishga solinmagan. Ayni paytda O'zbekiston cheklangan miqdorda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Islom SJIF:5.219

taraqqiyot banki kabi xalqaro institutlarning mablag'larini jalb etib kelmoqda. Holbuki, infratuzilma va ijtimoiy sohalar bo'yicha xalqaro donorlar, grantlar va imtiyozli kreditlar hajmi yuqori bo'lib, ular hisobidan byudjet yukini kamaytirish, zamonaviy loyiha boshqaruvi va texnologiyalarni jalb etish mumkin.

Yuqorida keltirilgan tahlil va xalqaro tajriba asosida aytish mumkinki, O'zbekistonda qurilish loyihalarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish amaliyoti samaradorligini oshirish uchun bir nechta asosiy yo'nalishlarda islohotlar zarur:

- DXSh va xususiy sektor ishtirokini oshirish orqali byudjet yukini kamaytirish.
- Maxsus jamg'armalar va obligatsiyalar mexanizmlarini rivojlantirish.
- Loyiha tanlash va baholashda shaffof va iqtisodiy asoslangan yondashuvlarni kuchaytirish.
- Moliyaviy intizom va nazorat tizimlarini mustahkamlash.
- Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni faollashtirish.

Bu yo'nalishlar orqali davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilayotgan qurilish loyihalarining samaradorligini oshirish, resurslarni optimallashtirish va infratuzilma rivojini tezlashtirish imkoniyatlari yaratiladi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida qurilish va infratuzilma loyihalarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish amaliyoti tahlili natijalari ushbu sohada tizimli islohotlarni chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, so'nggi yillarda davlat byudjeti ulushining kamayishi xususiy sektor va xalqaro moliya institutlari ishtirokini oshirishga olib kelgan bo'lsa-da,

moliyalashtirish jarayonida samaradorlik va shaffoflik yetarli darajada ta'minlanmagan. Ayniqsa, qurilish loyihalarini tanlash, baholash va moliyalashtirishda iqtisodiy asoslangan qarorlar qabul qilish, risklarni oqilona taqsimlash va investitsiyalar natijadorligini monitoring qilish tizimlari zaifligicha qolmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili asosida shuni ta'kidlash mumkinki, DXSh mexanizmlarining keng joriy etilishi, maxsus jamg'armalar va obligatsiyalar orqali moliyalashtirish, xalqaro donorlar va moliyaviy institutlar bilan faol hamkorlik O'zbekiston sharoitida byudjet yukini kamaytirish, infratuzilma loyihalarining sifat va samaradorligini oshirish uchun muhim omillar hisoblanadi. Bundan tashqari, loyihalarni tanlashda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikka asoslangan baholash tizimini kuchaytirish, moliyalashtirish jarayonlarining ochiqligi va hisobdorligini oshirish zarur. Shu bilan birga, ichki audit, Hisob palatasi va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali davlat byudjeti mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazoratni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlar kompleks amalga oshirilsa, O'zbekistonda qurilish loyihalarini moliyalashtirish tizimi samaradorligi va natijadorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hazratqulov Sh.B. Kapital qurilish loyihalarini moliyalashtirishni samarali tashkil etish. – Miasto Przyszłości, 53-son. – 2024. – B. 7-9.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-dekabrdagi PQ-3437-sonli qarori. – lex.uz.

3. Global Infrastructure Hub. Infrastructure investment trends 2023. – London, 2023.
4. Jahon banki. Private Participation in Infrastructure (PPI) Database. – Washington D.C., 2023.
5. Islomov N. Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish tajribasi. – Qozog‘iston moliyaviy sharhlari jurnali. – 2022. – B. 44-49.
6. Smith J. Public Finance Initiative: Success or failure? – London: Oxford Publishing, 2019. – P. 112-117.
7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi. – Toshkent, 2024.
8. Invexi.org. 1-chorak 2024 yil: Asosiy kapitalga investitsiyalar. – 2024. – <https://invexi.org/analytics/investment2024>.